




2020-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning 1-yanvar holatiga 19605 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,4 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3777 ta (25,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18614 tani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,7 % savdo, 16,4 % sanoat, 9,4 % qurilish, 8,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa hamda 25,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4735 ta), Urganch tumani (2161 ta), Xiva shahri (1723 ta), Xiva tumani (1646 ta) va Xonqa tumani (1512 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (812 ta), Shovot (998 ta) hamda Bog'ot (1016 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18614 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3777 ta (25,6 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4375 ta), Urganch tumani (2049 ta), Xiva shahri (1645 ta), Xiva tumani (1505 ta) va Xonqa tumani (1489 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (798 ta), Shovot (940 ta) hamda Bog'ot (968 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.



**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 4843 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'pdir.


Yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (931 ta), Urganch (645 ta), Xiva shahri (424 ta) va Xazorasp tumani (382 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiariq (251 ta), Yangibozor (252 ta), Bog'ot (283 ta) hamda Shovot (295 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1716 ta), sanoat (926 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (630 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (393 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (52 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (103 ta) hamda tashish va saqlash (140 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga 15545 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 4918 ta, oilaviy korxonalar - 2464 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 7900 ta va boshqalar 263 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 8324 tani tashkil etib, ulardan 7900 tasi yoki 94,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1596 taga yoki 25,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 2086 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1046 taga ko'pdir.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar-dekabr oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	8324	7900	2086
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1038	984	327
Sanoat	1438	1360	330
Qurilish	1273	1195	265
Savdo	2608	2485	688
Tashish va saqlash	560	534	110
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	246	231	64
Axborot va aloqa	100	92	25
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	145	141	37
Boshqa turlari	916	878	240



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 31,4 %, sanoat 17,2 %, qurilish 15,1 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 12,5 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa axborot va aloqa 1,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,8 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 2,9 % va tashish va saqlash faoliyat turlarida 6,8 % ga to'g'ri kelgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda





Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 15453 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 30,8 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	<i>shundan:</i>	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
Xorazm viloyati	15453	928	14525
Urganch sh.	3682	323	3359
Xiva sh.	1513	53	1460
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	738	38	700
Gurlan	953	65	888
Qo'shko'pir	929	33	896
Urganch	1773	127	1646
Xazorasp	1078	56	1022
Xonqa	1238	77	1161
Xiva	1295	40	1255
Shovot	705	48	657
Yangiariq	921	31	890
Yangibozor	628	37	591


2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	•Urganch shahri 23,8 %		•Gurlan 6,2 %
	•Urganch 11,5 %		•Qo'shko'pir 6,0 %
	•Xiva shahri 9,8 %		•Yangiariq 6,0 %
	•Xiva 8,4 %		•Bog'ot 4,8 %
	•Xonqa 8,0 %		•Shovot 4,5 %
	•Xazorasp 7,0 %		•Yangibozor 4,0 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3682 tasi (23,8 %) Urganch shahri, 1773 tasi (11,5 %) Urganch, 1513 tasi (9,8 %) Xiva shahri hamda 1295 tasi (8,4 %) Xiva tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15453 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4975 ta (32,2 %) - savdo, 3031 ta (19,6 %) - sanoat, 1731 ta (11,2 %) - qurilish, 1621 ta (10,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1202 ta (7,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 662 ta (4,3 %) - tashish va saqlash, 342 ta (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 220 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1669 tasi (10,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 4668 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2659 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (897 ta), Urganch tumani (627 ta), Xiva shahri (412 ta) va Xonqa tumani (362 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangibozor (238 ta), Yangiariq (245 ta) hamda Bog'ot (272 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi		13,5 %	Tashish va saqlash		3,0 %
Sanoat		19,8 %	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar		8,4 %
Qurilish		7,8 %	Axborot va aloqa		1,1 %
Savdo		36,7 %	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish		1,9 %
Boshqa turlar					7,8 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1716 ta, sanoat 926 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 629 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 391 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 52, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 87 ta hamda tashish va saqlashda 140 ta tashkil etilgan.




Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 2574 tani tashkil etib, ulardan 2464 tasi yoki 95,7 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 99,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	01.01.2020 y.		2019 yil yanvar-dekabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Xorazm viloyati	2574	2464	1291
Urganch sh.	498	466	164
Xiva sh.	329	316	166
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	154	146	96
Gurlan	94	94	79
Qo'shko'pir	263	248	124
Urganch	352	334	169
Xazorasp	49	47	13
Xonqa	287	285	146
Xiva	194	185	94
Shovot	94	88	62
Yangiariq	177	172	113
Yangibozor	83	83	65

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 26,3 % yoki 649 tasi savdo, 25,9 % yoki 639 tasi sanoat, 24,6 % yoki 607 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,5 % yoki 333 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 27 tasi qurilish, 0,9 % yoki 22 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 14 tasi tashish va saqlash hamda 6,2 % yoki 151 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdoda, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Xorazm viloyati	1 291	100,0
Urganch sh.	164	12,7
Xiva sh.	166	12,9
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	96	7,4
Gurlan	79	6,1
Qo'shko'pir	124	9,6
Urganch	169	13,1
Xazorasp	13	1,0
Xonqa	146	11,3
Xiva	94	7,3
Shovot	62	4,8
Yangiariq	113	8,8
Yangibozor	65	5,0

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Urganch (169 ta), Xiva shahri (166 ta), Urganch shahri (164 ta) va Xonqa tumani (146 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Xazorasp (13 ta), Shovot (62 ta), Yangibozor (65 ta) hamda Gurlan (79 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,4 % yoki 393 tasi savdo, 24,6 % yoki 318 tasi sanoat, 19,8 % yoki 255 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 19,2 % yoki 248 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,8 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 0,5 % yoki 7 tasi qurilish, 0,4 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, hamda 3,6 % yoki 46 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 140 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 97,2 % ga o'sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Urganch shahrida 35 ta (jamidagi ulushi 25,0 %), Urganch 19 tani (13,5 %) va Xiva 11 ta (7,9 %) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Yangiariq 6 ta (4,3 %), Qo'shko'pir 6 tani (4,3 %) Yangibozor 7 ta (5,0 %) hamda Xazorasp 7 ta (5,0 %) tumanlarida tashkil etgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 85 tasi qo'shma, 55 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %





Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Xorazm viloyati	140	85	55
Urganch sh.	35	25	10
Xiva sh.	11	6	5
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	9	8	1
Gurlan	10	8	2
Qo'shko'pir	6	4	2
Urganch	19	5	14
Xazorasp	7	2	5
Xonqa	8	5	3
Xiva	11	4	7
Shovot	11	8	3
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	7	6	1

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 69 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar (20 ta yoki jamidagi ulushi 29,0 %), Urganch (11 ta yoki 16,0 %) va Xiva (8 ta yoki 11,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shko'pir (1 ta yoki 1,5 %), Bog'ot (1 ta yoki 1,5 %) va Yangiariq (1 ta yoki 1,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Turkmaniston rezidentlari kapitali ishtirokida – 22 ta, Rossiya - 16 ta, Turkiya – 10 ta, Xitoy – 5 ta va Eron - 5 ta boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 11 ta korxonalar yangi tashkil etilgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 23 ta sanoat, 16 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11 ta qurilish, 8 ta savdo va 11 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, foizda





Xorazm viloyatida MDH davlatlarining xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	34	23	11
Turkmaniston Respublikasi	25	16	9
Qozog'iston Respublikasi	9	4	5
Qirg'iziston Respublikasi	1	1	0
Ukraina Respublikasi	1	0	1
Belorus Respublikasi	1	1	0

Viloyatda MDH davlatlarining xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 24,3 %, Turkmaniston Respublikasi 17,9 %, Qozog'iston Respublikasi 6,4 %, Qirg'iziston, Ukraina va Belorus Respublikalarida 0,7 % ga to'g'ri kelmoqda.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
(62) 224-65-11